



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRINING
BUYRUG‘I

2025-yil “25”-mart

117-son

Toshkent shahri

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta’lim tashkilotlarida talabalarga grantlarni taqdim etish va qayta taqsimlash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 2025-yil 10-martdagi 149-sonli qarori ijrosini ta’minlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta’lim tashkilotlarida talabalarga grantlarni taqdim etish va qayta taqsimlash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 2025-yil 10-martdagi 149-sonli qarorida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida

B U Y U R A M A N:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta’lim tashkilotlarida talabalarga grantlarni taqdim etish va qayta taqsimlash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 2025-yil 10-martdagi 149-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Davlat oliy ta’lim tashkilotlari rektorlari (direktorlari):

a) **bir hafta muddatda** mazkur qaror va unga ilova – Oliy ta’lim tashkilotlarida talabalarga grantlarni taqdim etish va qayta taqsimlash tartibi to‘g‘risidagi nizomning (keyingi o‘rinlarda – Nizom) mazmun-mohiyatini talabalarga yetkazish choralari ko‘rsin;

b) **2025-yil 5-aprelga qadar, kelgusida har o‘quv yili yakunlanishidan kamida olti oy oldin** ta’lim granti sonini talabalar sonidan kelib chiqib bakalavriat ta’lim yo‘nalishi (magistratura mutaxassisligi), ta’lim tili va kurslar kesimida to‘liq ta’lim granti va to‘liq bo‘lmagan ta’lim grantiga ajratgan holda tasdiqlasin, bunda:

to‘liq ta’lim granti – ta’lim granti bazaviy sonining 50 foizidan kam bo‘lmagan miqdorda;

to‘liq bo‘lmagan ta’lim granti – ta’lim granti bazaviy sonining to‘liq ta’lim grantidan qolgan qismining ikki baravari miqdorida belgilasin hamda ularining o‘zaro nisbatini oliy ta’lim tashkilotining rasmiy veb-saytida e’lon qilsin;

v) **har o'quv yili yakunlangunga qadar** jamoatchilik vakillarini jalb qilgan holda Akademik o'zlashtirish ko'rsatkichini aniqlash bo'yicha komissiya, Ijtimoiy faollikni aniqlash bo'yicha komissiya hamda Maxsus komissiya tarkibini tasdiqlasin;

g) quyidagilar:

qayta taqsimlanadigan ta'lim grantiga da'vogar talabalar;

Ijtimoiy himoya milliy agentligi hamda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan belgilangan toifadagi talabalar (keyingi o'rinlarda – belgilangan toifadagi talabalar) uchun ajratiladigan qo'shimcha davlat grantiga da'vogar talabalar;

moliyaviy mustaqillik berilgan oliy ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan belgilangan toifadagi talabalar uchun ajratiladigan oliy ta'lim tashkiloti grantiga da'vogar talabalar uchun **har yili 20-iyulga qadar** oliy ta'lim tashkilotining rasmiy veb-saytida **onlayn ro'yxatdan o'tish** imkoniyatini yaratsin;

d) Akademik o'zlashtirish ko'rsatkichini aniqlash bo'yicha komissiya hamda Ijtimoiy faollikni aniqlash bo'yicha komissiya tomonidan Nizomda belgilangan tartib va muddatlarda talabgorlarning hujjatlari va natijalari baholanib, **har yili 1-avgustga qadar** Maxsus komissiyaga taqdim etilishini ta'minlasin;

e) Maxsus komissiya tomonidan:

ta'lim grantlari (to'liq va to'liq bo'lmagan ta'lim grantlari) o'rniga mos ravishda shakllantirilgan talabgorlar ro'yxatini **har yili 15-avgustga qadar** oliy ta'lim tashkiloti kengashiga kiritilishini;

belgilangan toifadagi talabalar uchun ajratilgan qo'shimcha davlat grantiga tavsiya etiladigan talabgorlar ro'yxatini **har yili 20-avgustga qadar** oliy ta'lim tashkiloti rektoriga (direktoriga) kiritilishini;

moliyaviy mustaqillik berilgan oliy ta'lim tashkilotlarida belgilangan toifadagi talabalar uchun ajratilgan oliy ta'lim tashkiloti grantiga tavsiya etiladigan talabalar ro'yxatini **har yili 20-avgustga qadar** oliy ta'lim tashkiloti rektoriga (direktoriga) kiritilishini ta'minlasin;

o) oliy ta'lim tashkiloti rektorining (direktorining) quyidagilarni nazarda tutuvchi buyruqlarini rasmiylashtirsin:

har yili 1-sentabrga qadar oliy ta'lim kengashining qaroriga asosan tavsiya etilgan talabalarga ta'lim granti berish;

har yili 5-sentabrga qadar Maxsus komissiya tavsiyasiga asosan belgilangan toifadagi talabalarga qo'shimcha davlat granti berish;

har yili 5-sentabrga qadar Maxsus komissiya tavsiyasiga asosan belgilangan toifadagi talabalarga oliy ta'lim tashkiloti granti berish;

j) Akademik o'zlashtirish ko'rsatkichini aniqlash bo'yicha komissiya, Ijtimoiy faollikni aniqlash bo'yicha komissiya hamda Maxsus komissiyaning faoliyati natijalarini (talabgorlarning aniqlangan ko'rsatkichlari) muntazam ravishda oliy ta'lim tashkilotining rasmiy veb-saytida e'lon qilib borilishini ta'minlasin;

z) ta'lim grantini qayta taqsimlash jarayonlaridan norozi bo'lgan talabgorlar uchun har bir ko'rsatkich bo'yicha natijalar e'lon qilingandan so'ng 48 soat davomida oliy ta'lim tashkilotining rasmiy veb-sayti orqali apellyatsiya berish imkoniyati yaratilishini ta'minlasin.

3. Davlat oliy ta'lim tashkilotlari rektorlari (direktorlari) talabalarning ro'yxatdan o'tishida tizimda ularning ma'lumotlari to'g'ri ekanligiga, talabalarga grantlarni taqdim etish va qayta taqsimlash jarayonlarini adolatli hamda shaffof o'tishiga shaxsiy javobgar etib belgilansin.

4. Ta'lim muassasalari faoliyatini tashkil etish, litsenziyalash, ta'lim sifatini ta'minlash departamenti (A.Xoliqov) talabalarga grantlarni taqdim etish va qayta taqsimlash jarayonini muvofiqlashtirib borsin.

5. Axborot xizmatlari bo'limi (N.Abduqunduzova) **har yili belgilangan muddatlarda** talabalarga grantlarni taqdim etish va qayta taqsimlash jarayonlarini oliy ta'lim tashkilotining rasmiy veb-saytida e'lon qilib borilishini nazoratga olsin.

6. Ta'lim muassasalari faoliyatini tashkil etish, litsenziyalash, ta'lim sifatini ta'minlash departamenti (A.Xoliqov) **ikki oy muddatda:**

oliy ta'lim tashkilotlarining bakalavriat ta'lim yo'nalishlarida muayyan o'quv yili yakuni bo'yicha GPA ko'rsatkichi 4 va undan yuqori bo'lganda qo'shimcha davlat granti beriladigan;

moliyaviy mustaqillik berilgan oliy ta'lim tashkilotlarida GPA ko'rsatkichi 3,3 dan 4 gacha bo'lganda oliy ta'lim tashkiloti granti beriladigan abituriyentlar toifasini Ijtimoiy himoya milliy agentligi bilan birga belgilash yuzasidan takliflarni ishlab chiqsin.

7. Moliya-iqtisodiyot va infratuzilmani rivojlantirish boshqarmasi (J.Xalilov), **Budjet dasturlarini shakllantirish, monitoring qilish va ularning ijrosini muvofiqlashtirish bo'limi** (A.Mamadaliyev), **Buxgalteriya hisobi va hisoboti bo'limi** (Q.Artikov) **ikki oy muddatda** Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tizimidagi oliy ta'lim tashkilotlari uchun ajratiladigan budjet mablag'lari hajmini ushbu qarorga muvofiq hisoblasin hamda navbatdagi moliya yili uchun O'zbekiston Respublikasining respublika budjetidan mazkur maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar doirasida taqsimlash choralari ko'rsin.

8. Yuridik ta’minlash bo’limi (F.Fayziyev) 2025-yil 8-mayga qadar manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda o‘zlari qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlarni ikki oy muddatda ushbu qarorga muvofiqlashtirsin.

9. Mazkur buyruq ijrosining nazorati vazirning birinchi o‘rinbosari Sh. Daliyev zimmasiga yuklansin.

Vazir



K. Sharipov



Hujjat haqiqiyligini mobil qurilma yordamida QR- kodni skaner qilish orqali tekshirish mumkin